

## ERKINLIK VA ZARURIYAT TUSHUNCHALARINI FALSAFIY JIHATDAN TAHLILI

**Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi**

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

v.b. dotsenti, DSc, Toshkent, O‘zbekiston

ruzmatova.dilnavoz@gmail.com

ORCID: 0000-0002-1857-7006

### ANNOTATSIYA

*Maqolada erkinlik va zaruriyat muammosi falsafa tarixidagi asosiy yondashuvlar doirasida tahlil qilinadi. Inson erkinligi, iroda, tanlov va mas’uliyat masalalari zaruriyat bilan dialektik bog‘liqlikda yoritiladi. Erkinlikning axloqiy mohiyati hamda uning ijtimoiy va shaxsiy faoliyatdagi ahamiyati ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** erkinlik, zaruriyat, iroda erkinligi, tanlov, mas’uliyat, axloq, determinizm, falsafa.

### ABSTRACT

*The article analyzes the problem of freedom and necessity within the framework of the main approaches in the history of philosophy. The issues of human freedom, will, choice and responsibility are covered in a dialectical relationship with necessity. The moral essence of freedom and its significance in social and personal activity are revealed.*

**Keywords:** freedom, necessity, free will, choice, responsibility, morality, determinism, philosophy.

### KIRISH

Falsafa tarixida erkinlik va zaruriyat muammosi eng murakkab va bahsli masalalardan biri hisoblanadi. Bu muammo inson irodasi, axloqiy tanlov, mas’uliyat va jamiyatdagi faoliyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Turli falsafiy yo‘nalishlarda erkinlik ba’zan zaruriyatga bo‘ysundirilgan, ba’zan esa mutlaq mustaqil hodisa sifatida talqin qilingan. Mazkur maqolada erkinlik va zaruriyatning o‘zaro munosabati, ularning inson axloqiy faoliyatidagi o‘rni hamda erkinlikning mas’uliyat bilan uzviy bog‘liqligi falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Erkinlik va zaruriyat muammosida klassik va zamonaviy mutafakkirlar qarashlari keyingi tadqiqotchilar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Antik davr falsafasida Sokratning axloqiy erkinlik haqidagi g‘oyalari Aleksey Losev [12] va Vasily Asmus [1] asarlarida antik etika va ong muammolari kontekstida izohlangan.

Barux Spinozaning “anglangan zaruriyat” konsepsiyasi Evald Ilyenkov [7] tomonidan dialektik materializm nuqtayi nazaridan, shuningdek Jil Delyoz [4] tomonidan ontologik va immanensiya g‘oyalari asosida qayta talqin qilingan.

Kant axloq falsafasidagi erkinlik masalasi uning merosi asosida German Koen [11] va Sergey Gessen [3] tomonidan neokantchilik doirasida ishlab chiqilgan.

Ekzistensial erkinlik tushunchasi Nikolay Berdyayev [2] asarlari asosida Frederik Kopleston [9] tomonidan G‘arb va rus falsafasi qiyosida tahlil qilingan. Gegel va tarixiy erkinlik muammosi esa Alexandr Kojev [8] tomonidan fenomenologik va tarixiy dialektika asosida yoritilgan.

Mazkur tadqiqotlar erkinlik va zaruriyat muammosining turli falsafiy maktablar doirasida izchil rivojlanganini ko‘rsatadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Erkinlik va zarurat muammosi falsafa tarixida har doim nihoyatda dolzarb bo‘lib kelgan. Faylasuflar bu muammoni turlicha hal etishga harakat qilganlar. Inson iroda erkinligini faqat zarurat bilan, hatto u anglab yetilgan bo‘lsa ham, bog‘laydigan soddalashtirilgan materialistik talqin aslida insonni bu erkinlikdan mahrum qiladi. Fransuz faylasufi P.Golbax shunday degan edi: «inson barcha harakatlarida zaruratga bo‘ysunadi... uning iroda erkinligi – bu xayolotdir» [6, 60].

Byuxnerga ko‘ra, erkinlik – bu qo‘llari bog‘langan odamning erkinligi, qafasdagi qushning erkinligidir. Darhaqiqat, agar hamma narsa bir ma‘noli tarzda zarur bo‘lsa, agar tasodiflar va imkoniyatlar bo‘lmasa, agar inson avtomat kabi harakat qilsa, erkinlik uchun joy qolmaydi. Hatto inson biror narsaning zaruratini anglab yetsa ham, bu anglash uning holatini o‘zgartirmaydi. Qamoqxonada o‘tirgan va bu zaruratni «anglab yetgan» jinoyatchi ham bundan erkin bo‘lib qolmaydi.

Erkinlikning bunga qarama-qarshi bo‘lgan yana bir talqini ham mavjud. Unga ko‘ra, erkinlik – bu «inson xohlaganicha harakat qilish imkoniyati. Erkinlik – bu iroda erkinligi. Iroda esa o‘z mohiyatiga ko‘ra har doim erkindir» [14, 523]. Buyuk Yekaterina shunday degan edi: «erkinlik – bu hech kim meni men xohlamagan ishni qilishga majbur qila olmasligidir». Uning so‘zlarida bu jozibali jaranglaydi, chunki u erkinlikning qarama-qarshisini zarurat emas, balki majburlash ekanini ilg‘ab olgan. Ammo ayrim faylasuf-nazariyotchilar tomonidan e‘lon qilinadigan mutlaq erkinlik bilan nima qilish mumkin? Bunday erkinlikning mavjudligi shubhali.

Tasavvur qilaylik, individ dunyoda maksimal yoki mutlaq erkinlikka erishdi. Bunday darajadagi erkinlikka ega bo‘lgan inson oxir-oqibat uning erkinligi cheksiz yolg‘izlikka aylanganini anglaydi. Amerikalik faylasuf E.Frommning «Erkinlikdan qochish» nomli asari aynan shuni ifodalaydi. Bu nom shunday insonning kayfiyatini

aniq aks ettiradi: «menga bunday erkinlik nima uchun kerak?» Barcha qaramlik shakllari bartaraf etilgach, individ oxir-oqibat o'zining individual «men»i bilan yolg'iz qoladi. Tabiat, jamiyat yo'qoladi... Erkinlikni ma'lum darajada cheklagan bo'lsa-da, insonni muayyan odamlar doirasi va narsalar bilan bog'lab turgan ko'plab rishtalar yo'qoladi. «Inson erkindir» – «demak, u yolg'izdir». F.M.Dostoyevskiy «Aka-uka Karamazovlar» asarida Buyuk inkvizitor tilidan muhim fikrni ta'kidlaydi: «inson va insoniyat jamiyati uchun erkinlikdan ham chidab bo'lmasroq narsa hech qachon bo'lmagan», shu sababli «inson uchun erkin bo'lib qolganidan keyin tezroq kimningdir oldida tiz cho'kadigan kishini topishdan ortiqroq tashvish va azob yo'q» [5, 319].

Erkinlikning eng chuqur ishlab chiqilgan konsepsiyalaridan biri N.A.Berdyayevning ekzistensial konsepsiyasidir (uning «Erkinlik falsafasi», «Erkin ruh falsafasi», «Ruh va voqelik», «Insonning qulligi va erkinligi haqida», «Ruh saltanati va Qaysar saltanati» va boshqa asarlariga qarang). Unga ko'ra, erkinlikni tabiiy yoki ijtimoiy zarurat bilan bog'lash haqiqiy erkinlikni mazmunsiz qiladi. Moddiy dunyo sababli, majburiydir, haqiqiy erkinlik esa asossizdir. Erkinlik faqat imkoniyatni tanlash emas (bunday tanlov ham majburiydir), erkinlik – bu ijod, ilgari mavjud bo'lmagan narsani yaratishdir. «Erkinlikni tanlov sifatida belgilash – bu erkinlikning hali formal ta'rifidir. Bu erkinlikning faqat bir lahzasidir. Haqiqiy erkinlik inson tanlov qilishi kerak bo'lgan paytda emas, balki tanlovni amalga oshirgan paytda namoyon bo'ladi. Bu yerda biz erkinlikning yangi, real ta'rifiga kelamiz. Erkinlik – bu insonning ichki ijodiy energiyasidir. Erkinlik orqali inson mutlaqo yangi hayotni, jamiyat va dunyoning yangi hayotini yaratishi mumkin. Ammo bu yerda erkinlikni ichki sababiylik sifatida tushunish xato bo'lur edi. Erkinlik sabab-oqibat munosabatlaridan tashqaridadir. Sababiy munosabatlar obyektivlashgan fenomenlar dunyosida mavjud. Erkinlik esa bu dunyodagi yorib o'tishdir» [2, 325].

Insonning ijodiy harakati faqat dunyo materiyasini qayta taqsimlash yoki qayta guruhlashdan iborat emas, u birlamchi materiyaning oqib chiqishi ham emas, shuningdek materiyaga ideal shakllarning yuklanishidan ham iborat emas. Berdyayev ta'kidlaganidek, insonning ijodiy harakatiga ushbu dunyoda ilgari mavjud bo'lmagan, bu dunyoga kirmagan, boshqa bir rejalaridan yorib chiqadigan yangilik kirib keladi – u abadiy berilgan ideal shakllardan emas, balki erkinlikdan, zulmatli erkinlikdan emas, balki ma'rifiy erkinlikdan kelib chiqadi. Erkinlik ijoddan ajralmasdir. Faqat erkin inson ijod qiladi.

Berdyayevning erkinlik konsepsiyasida eng qimmatli jihat – haqiqiy, real erkinlikni eng avvalo ijod sifatida asoslab berganidadir. Qaysi erkinlik jihatini olaylik

– moddiy dunyoda imkoniyat tanlash bo‘ladimi yoki yangi vaziyat yaratish bo‘ladimi  
– har ikki holatda ham inson ijodini ko‘ramiz. Shunga qaramay, uning konsepsiyasining umumiy pafosi qanchalik jozibali bo‘lmasin, determinizmni inkor etishiga qo‘shilib bo‘lmaydi.

Deterministik falsafada erkinlik insonning o‘z manfaat va maqsadlariga muvofiq, obyektiv zaruratni bilishga tayangan holda harakat qilish qobiliyati sifatida tushuniladi. Bunda «erkinlik» tushunchasining antonimi «majburlash» bo‘lib, u insonning o‘z ichki e‘tiqodlari, maqsadlari va manfaatlariga zid ravishda tashqi kuchlar ta‘sirida harakat qilishini anglatadi.

Erkinlikni majburlashga qarama-qarshi qo‘yish prinsipial ahamiyatga ega, chunki majburlash zarurat bilan aynan bir narsa emas. Bu jihatga B. Spinoza ham e‘tibor qaratgan: «Siz – deb yozgan u o‘z muxolifiga, – zarurat bilan majburlash yoki zo‘ravonlik o‘rtasida hech qanday farq yo‘q, deb o‘ylaysiz. Insonning yashashga, sevishga va hokazolarga intilishi unga kuch bilan singdirilmagan, biroq baribir u zarurdir...» [13, 584–585].

Erkinlik va zarurat antipod emasligi ularning bir-birini inkor etmagan holda mavjud bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Insoniy tajriba va fan shuni ko‘rsatadiki, hatto eng irratsional tuyulgan xatti-harakatlar ham insonning ichki dunyosi yoki tashqi sharoitlar bilan belgilanadi. Mutlaq iroda erkinligi – bu iroda aktining real shakllanish jarayonidan mavhumlashtirishdir. Shubhasiz, insonning maqsad va motivlarni tanlash bilan bog‘liq irodaviy qarori asosan uning ichki ongiy dunyosi bilan belgilanadi, biroq bu ichki dunyo tashqi obyektiv dunyoga qarshi qo‘yilmaydi, balki oxir-oqibat uning aksidir. Ong dunyosidagi dialektik o‘zaro bog‘liqlik tashqi dunyodagi hodisalarning dialektik o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi. Obyektiv zarurat ongda mantiqiy va psixologik zarurat sifatida namoyon bo‘ladi.

Insonning real erkin harakati, eng avvalo, xulq-atvorning muqobil yo‘llarini tanlash sifatida namoyon bo‘ladi. Erkinlik tanlov mavjud bo‘lgan joyda mavjud: faoliyat maqsadlarini tanlashda, ularga erishish vositalarini tanlashda, muayyan hayotiy vaziyatdagi xatti-harakatlarni tanlashda va hokazo.

Tanlov vaziyatining asosi obyektiv imkoniyatlar spektrining mavjudligidir, imkoniyatning obyektiv asosi esa uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va qonuniyatlardir. Obyektiv qonunlarga zid bo‘lmagan va zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lgan narsa mumkin hisoblanadi. Boshqacha aytganda, biror hodisaning imkoniyati uning zarurati darajasiga mutanosibdir. Biroq tanlov vaziyatining o‘zi erkinlik emas, balki erkin harakatning zaruriy shartidir. Erkin harakat tanlov vaziyatida muayyan alternativani tanlash va uni amalda ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq. Bu tanlov insonning maqsadli yo‘nalishlari bilan belgilanadi,

maqsadlar esa uning amaliy faoliyati va mavjud bilimlari bilan aniqlanadi. Tanlovda tayanch bo‘ladigan bilim esa, avvalo, zarurat haqidagi bilimdir. Inson o‘z ixtiyoridaagi bilimlar nuqtayi nazaridan ichki zaruratga ega bo‘lgan xulq-atvor yo‘lini tanlaydi.

Inson erkinligining muhim jihatlaridan biri – uning atrof-muhitni, o‘zini va jamiyatni o‘zgartirish qobiliyatidir. Insonning o‘zini yaratish qobiliyatining shart-sharoitlari hatto materiya evolyutsiyasining ijtimoiygacha bo‘lgan bosqichlarida, organik yaxlitlikka ega tizimlar paydo bo‘lishi bilan shakllangan.

Insonning erkin harakati har doim uning jamiyat oldidagi mas‘uliyatini nazarda tutadi. «Erkinlik va mas‘uliyat – ongli insoniy faoliyatning ikki tomonidir. Erkinlik – bu maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirish imkoniyati, tanlangan maqsad yo‘lida ongli ravishda harakat qilish qobiliyatidir. U obyektiv sharoitlar qanchalik yaxshi bilinsa, tanlangan maqsad va vositalar rivojlanish qonuniyatlariga qanchalik mos bo‘lsa, shunchalik to‘liq ro‘yobga chiqadi. Mas‘uliyat esa obyektiv sharoitlar, ularni anglash va subyektiv qo‘yilgan maqsad bilan belgilanadigan harakat usulini tanlash zaruratidir... Erkinlik mas‘uliyatni tug‘diradi, mas‘uliyat esa erkinlikni yo‘naltiradi» [10, 72].

Ilmiy-falsafiy dunyoqarashga ko‘ra, erkinlik ham, mas‘uliyat ham faqat obyektiv bog‘liqlik va determinizm mavjud bo‘lgan dunyodagina mumkin. Obyektiv zaruratni bilishga tayangan holda qaror qabul qilgan va harakat qilgan inson jamiyat oldidagi mas‘uliyat hissini ham shakllantira oladi. Mas‘uliyat ijtimoiy ong darajasi, ijtimoiy munosabatlar va mavjud institutlar bilan belgilanadi. Hatto inson o‘z vijdoni oldida javob berganida ham, unda zamonaviy ijtimoiy aloqalar va munosabatlar aks etadi. Erkinlik tushunchasi tavba tushunchasi bilan ham bog‘liqdir.

Bilish va ijtimoiy faoliyat muammolarini o‘z ichiga olgan erkinlik masalasi dialektika, bilish nazariyasi va etika, shuningdek borliq falsafasi va ijtimoiy falsafani bir butun qilib bog‘lab turuvchi yetakchi muammolardan biridir.

## **XULOSA**

Erkinlik va zaruriyat muammosi falsafa tarixida inson irodasi, axloqiy tanlov va mas‘uliyat masalalari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilingan. Turli falsafiy yo‘nalishlar erkinlikni yo mutlaq mustaqillik, yoki anglangan zaruriyat sifatida izohlagan bo‘lsa-da, zamonaviy ilmiy-falsafiy yondashuvlarda ularning dialektik birligi e‘tirof etiladi. Inson erkinligi obyektiv qonunlardan uzilgan holda emas, balki ularni anglash va shu asosda ongli, mas‘uliyatli faoliyat yuritish orqali namoyon bo‘ladi. Shu ma‘noda, erkinlik insonning ijtimoiy va ma‘naviy kamolotiga xizmat qiluvchi muhim falsafiy kategoriya sifatida ahamiyat kasb etadi.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Асмус В.Ф. Античная философия. – М.: Высшая школа, 1976.

2. Бердяев Н.А. Царство духа и царство кесаря. – М., 1995.
3. Гессен С.И. Основы педагогики. – Берлин, 1923.
4. Делёз Ж. Спиноза и проблема выражения. – СПб.: Академический проект, 1998.
5. Достоевский Ф.М. Собр. соч. в десяти томах. – Т., 9. –М., 1958.
6. Здравый смысл. – М.: Мысль, 1998.
7. Ильенков Э.В. Диалектика абстрактного и конкретного в «Капитале» Маркса. – М.: Политиздат, 1960.
8. Кожев А. Введение в чтение Гегеля. – М.: Логос, 2003.
9. Коплстон Ф. История философии. Т. 7–9. – М.: Мысль, 1994–2000.
10. Косолапов Р.И., Марков В.С. Свобода и ответственность. – М., 1999.
11. Коэн Г. Этика чистой воли. – М.: Республика, 1997.
12. Лосев А.Ф. История античной философии в конспективном изложении. – М.: Мысль, 1989.
13. Спиноза Б. Избранные произведения. В 2 т. – Т., 2. –М., 1957.
14. Философский словарь. – М.: Энциклопедия, 1989.